



Egamberdiyeva Nigora Azizovna



# "YOMG'IR BOLALARI"

(TASHXISLASH VA KORREKSIYALASH)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

EGAMBERDIYEVA NIGORA AZIZOVNA

**“YOMG'IR BOLALARI”**  
(TASHXISLASH VA KORREKSIYALASH)

USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent  
«Sarhon LLS»

2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**

-14522/34-

UO'K 376.056.2;808.5

KBK 74.3

E-37

EGAMBERDIYEVA N.A. "YOMG'IR BOLALARI" (TASHXISLASH VA KORREKSIYALASH). USLUBIY QO'LLANMA. – T.: "Sarbon LLS", 2024. 52 b.

**Taqrizchilar:**

**U.Y.Fayziyeva** – CHDPU, Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrası p.f.n. dotsent.

**M.M.Abdullayeva** – Nizomiy nomidagi TDPU "Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim" fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari p.f.b.f.d (PhD), v.b dotsent.

Ushbu uslubiy qo'llanmada hozirgi kunda alohida ehtiyojli bolalar orasida dolzarb masalaga aylangan autizm sindromli bolalar haqida yoritilgan. Autizm spektrida kamchiliklari bor bolalar sonining ortib borishi hamda ushbu sindromda kamchiliklarning turli-tumanligi korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning alternativ yo'nalishini tanlash mushkul vazifa hisoblanadi. Keltirib o'tilgan masalani hal etishda ushbu uslubiy qo'llanmada autizm sindromli bolalarning bilish jarayonlari, nutq va muloqot komponentlarini tekshirish metodikalari, nutqini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha korreksion ishlarning mazmuni, metod va tamoyillari, va shart-sharoitlari, korreksion ishlarni olib boruvchi ta'lim subyektlari hamda ularning vazifalari ochib berilgan.

Uslubiy qo'llanmadan maxsus pedagogika yo'nalishi talabalari, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi maxsus pedagoglar, tarbiyachilar, logopedlar foydalanishi mumkin.

ISBN 978-9910-9397-4-7

**MUNDARIJA**

KIRISH .....	4
AUTIZM SINDROMI TUSHUNCHASI TAHLILI .....	6
AUTIZM TURLARI VA TASNIFLARI .....	12
AUTIZM SINDROMLI BOLALAR DIAGNOSTIKASINI TASHKIL ETISH VA OLIB BORISH .....	19
AUTIZM SINDROMLI BOLALAR KORREKSION ISH TIZIMI .....	22
AUTIZM SINDROMLI BOLALAR KORREKSION YONDASHUVLAR .....	27
AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQI VA MULOQOTI .....	35
AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TAVSIYA ETILAYOTGAN METODIKALAR .....	40
XULOSA .....	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	49

## KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida mamlakatimizning ustuvor siyosatidan biri albatta, bu har bir yosh avlodni intellektual salohiyatli, jismonan sog'lom, ma'naviyati yetuk, har tomonlama barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. Davlatimizning bir qator qonun va qarorlarida jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o'rgatish, sog'lom tengqurlari qatoridan o'rin egallab, o'z qobiliyati va imkoniyatlarini ko'rsata olishga, ma'nau yetuk inson bo'lishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega deb shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot ko'nikmalarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan shaxs tushuniladi. Birlashgan millatlar tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra taxminan 450 million insonda ruhiy va jismoniy rivojlanishida kamchiliklar mavjudligi aniqlangan. Bu ko'rsatkich yer yuzi aholisining 1/10 qismini tashkil etadi. Bunday insonlar qatoriga eshitishi va ko'rishida, ruhiy, aqliy rivojlanishida, tayanch-harakat a'zolarida hamda og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan shaxslar kiradi. Shu bilan birga bunday nuqsonlarning og'irlik darajasi va bir-biri bilan qo'shib, murakkab nuqson hosil qilganligi bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda bu kabi rivojlanish kamchiliklari orasida autizm spektridagi buzilishlar alohida e'tiborga molik bo'lib, statistik ma'lumotlarga ko'ra, autizm spektrida buzilishlari bor bolalar 2000-yilda 10 000nafari boladan 4 - 26 nafarida, 2005-yilda 250-300nafari bolaning, 2008-yilda har 150nafari bolaning birida uchraydi. AQSHning kasalliklarni nazorat qilish markazi 2012-yildan to 2019-yilga qadar avval har 88 nafar, so'ng har 59 nafar bolaga 1ta autizm holati, 2022-yilda esa har 44 nafar bolaning birida uchrashini ko'rsatmoqda. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ushbu rivojlanish buzilishining chastotasini tobora o'sib

bormoqda. Shu munosabat bilan, autizm spektri buzilgan bolalarni ijtimoiylashuv muammolari dolzarb masalaga aylangan.

Autizm spektrida buzilishlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishida – nutqning kechikishi yoki yetishmasligi, suhbatni boshlash yoki davom ettira olmaslik, maqsadli monologik nutq va boshqa bir qator o'ziga xos xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladigan muloqot qobiliyatlarining yetishmasligi kabi to'sqinlik qiluvchi kamchiliklar kuzatiladi.

Autizm sindromli bolalarga ijtimoiy yordam turlaridan biri zamonaviy jamiyatda tobora katta ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy rehabilitatsiya hisoblanadi. Alohida yordamga muhtoj shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiyalash ijtimoiy yordamning murakkab, zamonaviy va muhim tizimlaridan biridir hamda uning asosiy vazifasi maxsus tashkil etilgan vositalar yordamida shaxsning ijtimoiy mavqeini tiklash bilan birga uning ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirokini ta'minlashdir.

## AUTIZM SINDROMI TUSHUNCHASI TAHLILI

Autizm butun dunyo bo'yicha tobora global ahamiyat kasb etayotgan muammolardan biri aylanmoqda. Respublika bolalarni ijtimoiylashtirish markazi taqdim etgan ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda ham 200dan ziyod autizm tashxisi qo'yilgan bolalar ro'yxatga olingan. Lekin hanzuzga qadar rehabilitatsiyaga jalb qilinmagan, e'tibordan chetda qolayotgan bolalar ham anchaginani tashkil etadi.

«Autismus» terminini shveysariyalik psixiatr Eygen Bleyler tomonidan 1912-yili fanga kiritilgan. Ushbu tushuncha yunon tilidan olingan bo'lib **αὐτός** — **“men”, “o'zim”** demakdir, ya'ni bemorning o'z qobig'iga o'ralishi va atrofdagilarga e'tibor bermasligi nazarda tutiladi. E.Bleyler autizmni ichki hayot, shizofreniyada orzular va hayollarning o'ziga xos dunyosi mavjudligi bilan haqiqatdan ajralish deb atadi. Keyinchalik u maniakal depressiv psixoz (MDP), shuningdek, jazava va affektiv kasalliklarda shizoid psixopatiya kabi kasalliklarning klinik ko'rinishida autizm mavjudligini tan oldi. Muallifning fikriga ko'ra, autizm affektiv komplekslarga, shu bilan birga fikrlashning buzilishiga asoslangan.

Autizmspektridagi buzilishlari birtashxisi bu XXI asr vabosi sifatida qaralib, oxirgi yillarda ko'pgina mutaxassislarning diqqat e'tiborida. Autizm spektridagi buzilishlar tashxisining dolzarbligi Butunjahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan 2001-yildan alohida ajratib ko'rsatilib, shu yilning o'zida “Psixik salomatlik yili” deb e'lon qilingan hamda 2005-yil Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2-aprel “Xalqaro autizm muammosi to'g'risida axborotlarni tarqatish kuni” deb e'lon qilinib, 2008-yildan buyon har yili nishonlanib kelinadi.

Autizm klinik ko'rinishlarining xilma-xilligi, ushbu kasallikning murakkab shakllari mavjudligi, shuningdek, korreksiyalash va tarbiyalash ishlarining murakkabligi autizm sindromini o'rganish nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va dolzarb

muammodir.

## Autizmi sindromini amaliyotga kiritilgan bosqichlari

Turli ilmiy adabiyotlarda autizm spektrining buzilishlariga turlicha ta'riflar keltirilgan.

№	Mualliflar	Autizm sindromiga berilgan ta'riflari
1.	Fransuz tadqiqotchisi J.M.Itar (1828)	“Intellektual mutizm” deb nomladi va bu bilan mutizmning asosiy belgilaridan biri – buzilgan intellektda nutqning rivojlanmaganligi yoki orqada qolishini ko'rsatib o'tdi.
2	Shveysariya psixiatri Eygen Bleyler (1912)	Fanga “autizm” terminini kiritdi va unga kishining emotsional ehtiyojlari tomonidan boshqariladigan va real voqeilikka bog'liq bo'lmagan tafakkurning o'ziga xos ko'rinishi sifatida ta'rif berdi.
3	Leo Kanner (1943)	Erta bolalik autizmi – muloqot (nutq, motorika) ning buzilishi bilan kechadigan alohida holat bo'lib, u “shizofrenik spektr” deb atalmish holatlar qatoriga kiritadi.
4	K.S.Lebedinskaya	Reallikdan uzilish, o'zidan uzoqlashish, tashqi taassurotlarga nisbatan reaksiyalarning yo'qligi yoki qarama-qarshiligi, muhit bilan aloqada loqaydlik yoki o'ta ta'sirchanlik.
5	G.Asperger (1944)	Ularning IQ saviyasi umuman olganda juda past bo'lmagan hollarda ham, baribir ular “aqlan qoloqlar”dek taassurot qoldiradilar. Biroq shunday odamlar borki, o'xshashlik bo'yicha autistlar deb atalishi mumkin bo'lsada, ammo aqliy qoloqlardek taassurot qoldirmaydi, ularda ayrim malakalarning yuqori darajada rivojlangani kommunikatsiya, ijtimoiy xulq-atvor va tasavvur taqchilligidan ko'ra kishini ko'proq hayratga solidi. Xususan, ularning verbal kommunikatsiyasi ancha yaxshi rivojlangan. Asperger autizmni “autik psixopatiya” deb atadi.
6	I.I.Mamaychuk	“Buzilgan rivojlanish dizantogenezining shunday turiki, unda umumiy psixik rivojlanmaganlikning murakkab birikmalari, alohida psixik funksiyalarning buzilgan va tezlashgan rivojlanishi kuzatiladi. Bu sifat jihatdan yangi patologik hosilalarni keltirib chiqaradi. Erta bolalik autizmi ushbu dizantogenez turning klinik turlaridan biridir.